

---

## Yangi O'zbekiston armiyasi-mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!

Bugun Rishton tumanidagi madaniyat saroyida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Unda tuman hokimi, sektor rahbarlari, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlar faxriylari, keng jamoatchilik, huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari ishtirok etdilar.

Tadbirni tuman hokimi Bahodirjon Xoliqov ochib berdi va so'nggi yillarda Prezidentimiz rahnamoligida Milliy armiyamizni yanada takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida fikrlar bildirdi.

Bayram tadbirida Vatanimiz tinchligi, osoyishtaligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashdek sharafligina ishga o'zini chog'lagan bir guruh harbiylarga tuman hokimligining tashakkurnomalari va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbir tuman Madaniyat markazining hushovoz xonandalari tomonidan kuylangan Ona Vatanni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar bilan yanada fayzli o'tdi.

📌 **Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati**

2025-01-14 12:00:49